IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

QO‘QON XONLIGINING XORIJIY DAVLATLAR BILAN DIPLOMATIK VA SAVDO MUNOSABATLARI

Sharopova Mohinur Qahramon qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotasiya: Qo‘qon shahri o‘zining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati tufayli ko‘pgina kurashlarga sabab bo‘lgan. Shu bilan birgalikda xonlik Sharqiy va G‘arbiy Osiyo o‘rtasidagi savdo yo‘llari chorrahasida joylashganligi bu davlatning bir qator davlatlar bilan diplomatik va savdo munosabatlari o‘rnatishiga qo‘l kelgan. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan Qo‘qon xonligining XVIII-XIX asrlardagi Afg‘oniston, Xitoy, Rossiya va Usmonli turklar davlati bilan diplomatik va savdo munosabatlari to‘g‘risida so‘z ketadi. Bundan tashqari, maqolada davlatlar o‘rtasidagi elchilik munosabatlari va qaysi mahsulotlar ko‘proq eksport va import qilinganligi haqida ham ma’lumotlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar. Qo‘qon xonligi, Afg‘oniston, Xitoy,Sharqiy turkiston, Rossiya imperiyasi, Usmonli turklar davlati, “Qo‘qon ipagi”, V.V. Velyaminov-Zernov, F.Nazarov, Xulm, “Xonlar xoni”, “Ellar xoni”.

Abstract: The city of Kokand, due to its geopolitical and geostrategic importance, has been the cause of many struggles. At the same time, the proximity of the Khanate to the crossroads of trade routes between East and West Asia helped this state establish diplomatic and trade relations with a number of countries. Three studies discuss the diplomatic and trade relations of the Kokand Khanate, which has a unique place in the history of Uzbekistan, with Afghanistan, China, Russia and the Ottoman Turks in the 18th-19th centuries. In addition, information is included.

Аннотация; Город Коканд, благодаря своему геополитическому и геостратегическому значению, был причиной многих конфликтов. В то же время близость ханства к перекрестку торговых путей между Восточной и Западной Азией помогла этому государству установить дипломатические и торговые отношения с рядом стран. Три исследования посвящены дипломатическим и торговым отношениям Кокандского ханства, занимающего уникальное место в истории Узбекистана, с Афганистаном, Китаем, Россией и Османской империей в XVIII-XIX веках. Кроме того, включена информация.

Qo‘qon xonligi va Afg‘oniston diplomatik va savdo munosabatlari.

Qo‘qon xonligi tashkil topgach taxtga kelgan hukmdorlar mamlakat markaziy hokimyatini mustahkamlash va qo‘shni davlatlar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatishga harakat qilgan. Bunga misol qilib xonlikning Afg‘oniston bilan munosabatlarini aytishimiz mumkin.Xonlikning Afg‘oniston bilan diplomatik munosabatlarga kirishishi 1760-yillarga to‘g‘ri keladi. Manjurlarning tahdidiga qarshi turish maqsadida Erdonaxon Ahmadshoh Durroniyni ham harbiy ittifoqqa qo‘shilishini istagan holda Afg‘oniston bilan muzokaralarga kirishadi. 1761-1763 yillarda Qo‘qondan Bobosher, Durroniylardan Xo‘ja Mirza ismli mulozimlar bu diplomatik aloqalarda elchilik vazifasini bajargan edilar. Qo‘qon – Afg‘oniston diplomatik munosabatlarida o‘rtaga qo‘yilgan asosiy masala – Koshg‘arni ozod qilish, u erni boshqargan Mahdumi A’zam avlodlari havfsizligini ta’minlash bo‘yicha Chin imperiyasi bilan muzokaralarni olib borish edi. Erdonaxonning Durroniylar bilan munosabatlari XVIII- asrning eng yirik siyosiy kelishuvi hisoblanadi, aslida. Biroq bu harbiy kelishuv Qo‘qon xonligining o‘zbek davlatchiligi tarixidagi kuchli va muhim harbiy ittifoq ekanligi tadqiqotlarda etarli ko‘rsatib berilmagan. Eng asosiysi

tashkil topganiga endigina 50 yil bo‘lgan Qo‘qon xonligi mintaqadagi siyosiy jarayonlarga befarq qaramaganligini, bu jarayonga qo‘shni sulolalarni harbiy ittifoqqa birlashish taklifi bilan chiqqanini tarixiy ahamiyati bor, albatta[1].

Qo‘qon xonligi Afg‘oniston bilan faol savdo munosabatlari ham olib borgan. Ikki davlatni bog‘lovchi karvon yo‘llari Buxoro xonligi hududidan o‘tgan. Buxoro xonligi orqali Afg‘onistonning Maymana, Saripul, Axcha, Andxoy, Kobul, va Hirot shaharlariga Qo‘qon xonligidan savdo karvonlari qatnagan. Shuningdek, Afg‘oniston va uning shaharlari O‘rta Osiyo xonliklari uchun muhim bo‘lgan savdo tranzit yo‘lida joylashgan bo‘lib, ularning aksariyati Qo‘qon xonligining Hindiston, Eron, arab mamlakatlari, Turkiya va Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan.

Qo‘qon xonligi Afg‘onistonga asosan, ipak mahsulotlarini eksport qilgan. Bu davlat shaharlariga keltirilgan ipakning bir qismi mahalliy hunarmandlar tomonidan xarid qilingan bo‘lsa, katta qismi qo‘shni mamlakatlarga olib ketilgan.Hindistonda bo‘lgan yevropalik sayyohlar ma’lumotlariga ko‘ra, XIXasr 50- yillarida Hirotdan Shikorpurga oliy navli “Qo‘qon ipagi” olib kelingan bo‘lib, Kobulda ham eng sifatli ipak “Qo‘qon ipagi” nomi bilan taniqli bo‘lgan.Kobulga keltirilgan Qo‘qon ipagi bu yerda saralangan, turli navlarga ajratilgan hamda Panjob va Hindistonga yuborilgan. Bundan tashqari xonlikdan keltirilgan ipak va ipak matolar Afg‘onistonning o‘zida ham xaridorgir bo‘lgan. Xususan, tikuvchilik rivojlangan Xulm (Toshqo‘rg‘on) shahri hunarmandlari o‘z mahsulotlarini yaratishda Qo‘qonning ipak matolaridan foydalanishgan. Xulmda ipak olib kelgan qo‘qonlik savdogarlarni tez-tez uchratish mumkin bo‘lgan[2].

Afg‘onistondan Qo‘qon xonligiga Buxoro orqali afg‘on qilichi, xanjari, to‘n va sallalari, gilamlar, dorivor giyohlar, qo‘y, tulki mo‘ynalari, jun gazlama, buzgundj bo‘yog‘i, Buxoro qorako‘l terisidan farq qiluvchi qorako‘l terisi va hind-ingiliz, fors mollari keltirilgan. V.V.Velyaminov-Zernov ma’lumotlariga qaraganda, Qo‘qon xonligida Kobul belbog‘i va sallalari mashhur hisoblangan va ularni xonlik bozorlariga afg‘on savdogarlari olib kelganlar. Qo‘qon xonligida Xuroson qilichlari ham qadrlangan bo‘lib, bu mahsulotlar mahalliy yoki hamda afg‘on savdogarlari tomonidan olib kelingan[3].

Qo‘qon xonligi va Usmonli turklar davlati munosabatlari

Qo‘qon xonligining Usmonli turklar davlati bilan diplomatik munosabatlari asosan Umarxon davridan boshlab o‘rnatilagan va bu munosabatlarning o‘ziga yarasha sabablari bor edi albatta. XIX - asrning boshlariga kelib Turkistonda geosiyosiy vaziyatning murakkablashishi, Qo‘qon xonligiga 3 tarafdan havfning yuzaga kelishi, Umarxonni bunga qarshi kuchli ittifoqchilarni izlashga undagan edi. Bu borada Qo‘qon xoni eng kuchli ittifoqchi sifatida Usmoniylar davlatini ko‘rgan. Buning bir necha ob’ektiv sabablari bor edi, albatta. Birinchidan, Usmoniylar davlati musulmon mamlakatlari ichida eng kuchlirog‘i edi. Ikkinchidan, o‘sha davrda bu davlat musulmon mamlakatlari uchun xalifalik markazi sanalar edi. 1819-yilda Usmoniylar sultoniga yuborilgan maktubda Qo‘qon xonligiga nisbatan yuzaga kelayotgan tashqi xavflarga urg‘u beriladi. Hujjatda asosan quyidagi 4 ta siyosiy masala ko‘tarilgan edi: 1. Chin

[1] Махмудов, Ш.Й. Қўқон хонлигининг дипломатик алоқалари (1709–1876): тар. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. автореф. / Ш.Й. Махмудов. – Тошкент, 2025. – Б. 24.

[2] Бабаходжаев, М.А. Русско-афганские торгово- экономические отношения в второй половине XVIII -начале XX в./М.А. Бабаходжаев. – Т.Наука, 1965. – С.13,131.

[3]Мадрахимов,З.Ш. Кўкон хонлигида савдо муносабатлари:Тарих фан.номз. …дисс./З.Ш.Мадрахимов. – Наманган,2009. – Б.71

imperiyasining Koshg‘arni egallagani; 2. Koshg‘ar masalasida Buxoro amirining Qo‘qonga nisbatan siyosiy bosimi; 3. Rossiya imperiyasining Qo‘qonning shimoliy chegarasida harbiy qal’alarni barpo eta boshlagani; 4. Qo‘qon hukmdoriga ma’naviy dastak kerakligi qayd etiladi. Ushbu 4 ta masala aks etgan maktub Umarxonning Markaziy Osiyodagi vaziyatni to‘g‘ri anglagani hamda bu masalada uning siyosiy pozitsiyasini namoyon etadi. Umarxondan so‘ng Qo‘qon taxtiga o‘tirgan Muhammad Alixon 1835-yildagina qozi Ernazar va Abdurrahmon sharbatdorni, 1837-yilning bahorida esa Muhammad Zoxid xojani Istanbulga yuborgan. Elchi Usmonli hukmdoriga Muhammad Alixonning qo‘shin ta’limi uchun o‘qituvchilar va ta’lim uchun kerakli mahsulotlar iltimos qilganligini yetkazadi. Muhammad Alixonning Usmoniylar bilan diplomatik munosabatlarni olib borishdan maqsadi Rossiya hamda Chin imperiyasi tajovuzidan himoyalanish edi. Qo‘qon tomonidan Usmoniylar hukumatidan xonlikka harbiy to‘pchi ustalar yuborilishi hamda bir qilich va nishon ham berilishi so‘ralgan. Shu bilan birga Muhammad Zohid xoja orqali Qo‘qon askarlarining barchasi suvoriylar (otliq askarlar) bo‘lib, piyoda askarlar mavjud bo‘lmaganligi uchun 2 piyoda, 2 suvoriy va 2 to‘pchi o‘rgatuvchilar hamda xalifalik maqomidagi Usmoniylar sultonidan Dashti Qipchoqning shimolidagi qozoq elatlarining Rossiya fuqaroligiga o‘tib ketishini oldini olish hamda Turkistonning birligi uchun, dushmanga qarshi kurashda hududdagi barcha siyosiy kuchlarni birlashtirishni ko‘zlagan Muhammad Alixon uchun “Xonlar xoni”, shaxzoda Muhammad Aminxon uchun esa “Ellar xoni” unvoni berilishi so‘ralgan. 1850- yillarda esa Xudoyorxon qurol-aslahalar va harbiy zobit va muhandislar masalasida hamkorlikka erisha olgani Qo‘qon-Usmoniylar munosabatlarida yangi bosqich hisoblanadi. 1865-yilda Rossiya imperiyasining Toshkentni bosib olishi, shu davrgacha juda faol bo‘lgan Qo‘qon – Usmoniylar munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, xonlik savdogrlari Usmoniylar davlati (Turkiya) va arab shaharlariga savdo maqsadida borib turganlar . Ular arab mamlakatlari va Turkiya shaxarlari bilan ham asosan Buxaro, Afg‘oniston, yoki Xuroson ,Eron hududlaridan o‘tgan karvon yo‘llari orqali savdo aloqalarini amalga oshirganlar[4].

Qo‘qon xonligidan arab mamlakatlari va Usmoniylar davlati shaharlariga ipak va yarim ipak matolar, mahallaiy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan maxsulotlar va Xitoy mollari olib borilgan. Bu mamlakatlarga xonlik savdogarlarining har bir safari bir necha oylab, yillab davom etgan.

Xar yili haj mavsumida Makka va Madina ziyoratiga otlangan hojilar ham ikki xudud o ‘rtasidagi savdo aloqalarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etganlar. Xususan, XIX asr 60 - yillarida O‘rta Osiyoda bo‘lgan A.Vamberi ma’lumotiga ko‘ra, Hirotga u bilan “50-60 atrofidagi qo ‘qonlik hojilar qariyb 40 dyujina ipak ro‘mol, 2mingga yaqin pichoq, 30 bo‘lak Namangan shoyisi, ko‘p sonli Qo‘qon do‘ppilari va boshqa mollarni sotish uchun Arabistonga olib ketganlar”.

Makka ziyoratiga ketayotgan qo‘qonlik ziyoratchilarning bir qismi Rossiya orqali, ya’ni Orenburg-Astraxan – Istanbul yo‘nalishidan foydalanishni maqul ko‘rganlar. Ular haj ziyoratiga borish jarayonida o‘zlari bilan mahalliy mollarni olib borganlar hamda safar davomida xorijiy maxsulotlarga ayirboshlaganlar. Toshkent bojxonasi ma’lumotlariga ko‘ra,

[4] Saray, M. Rus isgali devrinde Usmonli davlati bilan Turkiston hanliklari orasida siyosiy munasebetler, 1775-1875/M,Saray**.** – Ankara:Turk Tarih Kurumu, 2017. – 55s

1871 yil iyun oyida Qo‘qondan Toshkent orqali Makka va Madinaga 400 dona ipak ro‘mol, 1872 yil may-avgust oylarida esa Makkaga 23ming 545 rub. 50 qop.lik mol jo‘natilgan[5].

O‘rta Osiyo xonliklari bozorlariga turk mollari Hindiston bandargohlari Eron va Rossiya orqali ham keltirilgan. Hindiston orqali Qo‘qon xonlihgiga turk gazlamalari ingliz mollari bilan birgalikda kirib kelgan. Xususan, yiliga katta miqdorda turk dokasi Hindistondan Qobul va Buxoro orqali Qo ‘qon xonligiga kirib kelgan[6]. XIX asr 60-yillarida Chimkent bozorida Himdiston orqali kirib kelgan turk dokasidan tayyorlangan salla (16 arshin) 5 rub.dan sotilgan[7].

Qo‘qon xonligiga Istanbul, Qozon, Qobul, Bombey, Qohira shaharlaridan islom oyatining noyob va qimmatbaho qo‘lyozma va toshbosma kitoblari mahalliy savdogarlar tomonidan keltirilgan. Istanbul va Qohiradan keltirilgan kitob nusxalari xonlikda taniqli hisoblangan va boshqa hududlardan keltirilgan xuddi shu turdagi kitoblardan yuqoriroq narxlarda sotilgan[8].

Qo‘qon xonligining Xitoy bilan diplomatik va savdo aloqalari

Qo‘qon xonligining Xitoy bilan aloqalarida Sharqiy Turkiston alohida mavqega ega bo‘lgan. Bunga sabab, Qo‘qon xonligi Sharqiy Turkiston bilan bevosita chegaradosh,hamda uni Xitoy bilan bog‘laydigan karvon yo‘llari shu hudud orqali amalga oshirilgan. Sharqiy Turkiston Xitoy Xalq Respublikasining Sinszyan (Shinjon) avtanom viloyati. 1760 yilda Sharqiy Turkiston Sin imperiyasi tomonidan bosib olinganidan so‘ng unga Sinszyan (“Yangi chegara, Yangi hudud”) deb nom berilgan[9]. Qo‘qon xonligining Xitoy davlati bilan munosabatlariga keladiga bo‘lsak, ikki davlat o‘rtasida 1759-1809- yilgacha bo‘lgan 50 yil davomida Qo‘qondan yuborilgan maktublarni o‘rgangan Xitoy amaldori Ha Yanchen ma’lumotlariga ko‘ra Qo‘qondan Qashqarga jami 23 marta elchi yuborilgan. Pekinga esa 9 marta elchi yuborilganini yozgan. Qashqarga har 2-3 yilda bir marta, Pekinga har 6-7 yilda Qo‘qondan elchilar yuborilgan. 1809- yildan to 1876-yilga qadar esa manjurlar saroyiga 10 marta Qo‘qondan elchilar yuborilgan.[10]

Ch. Valixonovning O‘rta Osiyo va Qoshg‘ar o‘rtasidagi savdo munosabatlarida savdoga qo‘yilgan asosiy tovarlar haqidagi ma’lumotlari ham ahamiyatga ega.Bu ma’lumotlarga ko‘ra, O‘rta Osiyoda n Sharqiy Turkistonga olib borib sotiladigan tovarlarning asosiy qismini dori,

---

[5] Мадрахимов,З.Ш. Кўкон хонлигида савдо муносабатлари:Тарих фан.номз. …дисс./З.Ш.Мадрахимов. – Наманган,2009. – Б.76

[6] Гейнс,А.К. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве//Сўбрание сочинений А.К.Гейнса. – СПБ.,1897. – Т.2. – С- 374.

[7] Тетеревников, А.Н.Очерк внутренной торговли Киргизиской степи/А.Н Тетеревников. – СПБ.:Тип.В.Безобразова,1870. – С.26.27,36

[8] Мадрахимов,З.Ш. Кўкон хонлигида савдо муносабатлари:Тарих фан.номз. …дисс./З.Ш.Мадрахимов. – Наманган,2009. – Б.76

[9] Алимова Р.Р. Ўрта Осиё хонликларининг кўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иктисодий муносабатлари(XVI-XX аср бошлари рус тарихшунослиги ва манбалари асосида)/Р.Р Алимова. – Тошкент:- 2017. – б.99

[10] Кўлдошев Ш.Кўкон хонлиги ва Хитой(Чинг империяси) ўртасидаги дипломатик мнносабатлар.Монография./ШКўлдошев. – Тошкент 2019. – б.54

parcha, indigo,ipak gazlamalar, mayda yo‘l- yo‘l yoki guldor shoyi, gulbara deb ataluvchi yupqa gazlama, podshoi va beqasam, tiniq rangli yarim ipak va ip gazlamalar, hamda, alacha deb ataluvchi ip matolar, teri, qo‘y va qoramol, afyun, tamaki va O‘rta Osiyoda ishlangan boshqa hunarmandchilik buyumlari tashkil etgan. Sharqiy Turkistondan O‘rta Osiyoga esa choy, paxta, ipak, bo‘z, gilam, billur idishlar va kumush keltirib sotilgan. O‘rta Osiyolik savdogarlar Sharqiy Turkiston bozorlarida G‘arbiy Yevropa kelgan tovarlar bilan ham savdo qilganlar, Shveysariyada, Fransiyada, va Angliyada ishlab chiqarilgan yorqin qizil rangdagi chitlar, ingliz-amerika karton qog‘ozlari, qizil tusdagi ingluz kashmiri, oq muslin (harir va yupqa gazlama) va boshqalar shular jumlasidandir[11].

Qo‘qon xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi munosabatlar

Qo‘qon xonligi va Rossiya imperiyasi o‘rtasidagi munosabatlar boshqa xonliklarga nisbatan kechroq boshlangan. Xonlikning Rossiyadan ancha olisda joylashganligi aloqlar o‘rnatilishiga imkon bermagan. XIX - asr boshlariga kelib Qo‘qon xonligiga Rossiyaning tobora qiziqishi ortib boradi va siyosiy maqsadlarda ekspeditsiyalar tashkil etadi. O‘z nabbatida, Qo‘qon xonligi hukmdorlari bo‘lgan Olimxon va Umarxon davriga kelib mamlakat tashqi siyosatida o‘zgarishlar yuz bergan bo‘lib, xonlik hududining kengayishi oqibatida Rossiy aimperiyasi bilan ham diplomatik aloqalar o‘rnatish uchun elchilar yuborilgan.Ayniqsa, Qo‘qon xonligi diplomatiyasida Rossiya Imperiyasi bilan yaqinlashish siyosati va uning amaliy harakatlari boshlangan. Chunki, bu vaqtda Rossiya imperiyasi o‘z hududini sharqqa tomon kengaytirish siyosati tufayli xonlika qo‘shni bo‘lgan qozoqlar yerlariga kirib kela boshlagan edi. Qo‘qon xoni Olimxon 1809-yilda Toshkentni bosib olgach, Rossiya imperiyasi bilan aloqa o‘rnatish uchun qozoqlarning o‘rta juz sultonlari vositachiligida harakat qilgan. 1805- yildan to 1875- yilga qadar ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarda 20 dan ortiq elchilar faoliyat olib borgan.[12] 1812 yilda Qo‘qondan yuborilgan elchilarni Rossiya imperatori Peterburgda qabul qiladi. Elchi boshlig‘i Shakurbek o‘z xoni nomidan imperatordan Sibir shahrlari orqali o‘zaro savdoni rivojlantirish va xonlik savdogarlarini Rossiya shaharlarida erkin savdo-sotiq qilishlariga ruxsat berishini so‘ragan. Shuningdek, Petropavlovsk,Omsk, Semipalatinskda yashovchi qo‘qonliklar uyiga harbiy kishilar qo‘yishni to‘xtatishni talab qilgan. Rossiya imperatori elchilar talabi bajarilishini ma’lum qilgan. Bu haqida o‘sha davrdagi davlat maslahatchisi Vergin ismli shaxs Semipalatinsk chegara bojxona boshlig‘iga quyidagi xabarni bergan: “ Qo‘qon xoni va uning fuqorolari uchun Sibirda erkin savdo qilishlarini ta’minlash maqsadida yuborgan elchilari imperatorimiz tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilindi va o‘zaro savdoni kuchaytirish tadbirlari belgilandi. Hmada ularning savdo karvonlarini Petropovlovsk va Irtish liniyasidagi Koryakovsk forpostida, odatdagi boj qonun- qoidalariga asosan qabul qilishga ruxsat berildi”[13].

1813-1814-yillarda Qo‘qon xonligiga tashrif buyurgan sayohatchi Filip Nazarov ma’lumotlariga ko‘ra xonlikning Toshkent, Marg‘ilon, Andijon, Namangan, Qo‘qon shaharlarida

---

[11] Алимова Р.Р. Ўрта Осиё хонликларининг кўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иктисодий муносабатлари(XVI-XX аср бошлари рус тарихшунослиги ва манбалари асосида)/Р.Р Алимова. – Тошкент:-2017. – б.99

[12]Кўлдошев Ш.Кўкон хонлиги ва Хитой(Чинг империяси) ўртасидаги дипломатик мнносабатлар.Монография./ШКўлдошев. – Тошкент 2019. – б.54

[13] Topildiyev, N.Qo‘qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari tarixidan (XIX asr-1876-yilgacha)/N.Topildiyev. – Toshkent: .Fan, 2007. – B. 38-39

paxta, jun, shoyi gazlamalar ishlab chiqarish rivojlanganligi, ular boshqa mamlakatlarga eksport qilinganligi aytilagan. “Qo‘qon va Qo‘qon davlatida, deb yozgan F.Nazarov, paxta va tut daraxtlari ko‘p; hamma joyda paxta ekilgan dalalarni ko‘rasiz, undan qo‘qonliklar gazlama yasab, buxoroliklar bilan rus tovarlari: temir, sandal, mis sulfat, po‘lat,gazlamalar bilan almashishadi”. F.Nazarov shaharlar bo‘ylab yurar ekan, “aholisi… paxta qog‘ozi ishlab chiqarish va ipak qurti yetishtirish bilan shug‘ullanadigan doimiy tarqoq qishloqlar”ni qayd etgan.

XIX- asrdagi Qo‘qon xonligi iqtisodiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu davrga kelib Rossiya davlatining xonlikka eksporti hajmi 174000 rubldan 2171000 rublgacha yetganligini ko‘rishimiz mumkin[14]. Bu raqamlar albatta, ikki davlat orasidagi savdoning rivojlanib borganligi va o‘z navbatida ikki davllat ham diplomatik va savdo munosabatlaridan birdek manfaatdor bo‘lgan ekanligini ko‘rsatadi.

Biz ushbu tadqiqotimizda Qo‘qon xonligi Markaziy Osiyodagi muhim siyosiy markazlardan biri sifatida Xitoy, Rossiya imperiyasi, Afg‘oniston, Usmonli turklar va yana bir qator davlatlar bilan ham faol diplomatik aloqalar olib borganligini bilib oldik. Bu munosabtalar asosan elchilik almashinuvi, tinchlik shartnomalari va chegaraviy nizolarni tartibga solishga qaratilgan.Va shu bilan birgalikda savdo aloqalari ham xonlik iqtisodiyotining muhim asosini tashkil etgan. Aynan, savdo aloqalari Qo‘qon savdogarlarining Farg‘ona vodiysi mahsulotlarini tashqi bozorga olib chiqishiga sabab bo‘lgan. Evaziga choy, ipak va boshqa mahsulotlar olib kelingan.Tashqi savdo yo‘llarining rivojlanishi xonlik ichki iqtisodiy hayotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Biz buni Andijon, Qo‘qon, Marg‘ilon kabi shaharlarning hunarmandchilik va savdo markazlariga aylanishiga olib keldi. Umuman olganda, Qo‘qon xonligi o‘z davrida faol va keng qamrovli tashqi siyosat yuritgan bo‘lsa-da, tashqi omillar va ichki nizolar tufayli mintaqadagi geosiyosiy o‘zgarishlarga dosh bera olmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Алимова Р.Р. Ўрта Осиё хонликларининг кўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иктисодий муносабатлари(XVI-XX аср бошлари рус тарихшунослиги ва манбалари асосида)/Р.Р Алимова. – Тошкент:-2017. – б.99
2. Бабаходжаев, М.А. Русско-афганские торгово- экономические отношения в второй половине XVIII -начале XX в./М.А. Бабаходжаев. – Т.Наука, 1965. – С.13,131.
3. Гейнс,А.К. Управление Ташкентом при Кокандском владычестве//Сўбрание сочинений А.К.Гейнса. – СПБ.,1897. – Т.2. – С- 374.
4. Махмудов, Ш.Й. Қўқон хонлигининг дипломатик алоқалари (1709–1876): тар. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. автореф. / Ш.Й. Махмудов. – Тошкент, 2025. – Б. 24.
5. Мадрахимов,З.Ш. Кўкон хонлигида савдо муносабатлари:Тарих фан.номз. …дисс./З.Ш.Мадрахимов. – Наманган,2009. – Б.76
6. Saray, M. Rus isgali devrinde Usmonli davlati bilan Turkiston hanliklari orasida siyosiy munasebetler, 1775-1875/M,Saray**. –** Ankara:Turk Tarih Kurumu, 2017. – 55s
7. Кўлдошев Ш.Кўкон хонлиги ва Хитой(Чинг империяси) ўртасидаги дипломатик мнносабатлар.Монография./ШКўлдошев. – Тошкент 2019. – б.54
8. Тетеревников, А.Н.Очерк внутренной торговли Киргизиской степи/А.Н Тетеревников. – СПБ.:Тип.В.Безобразова,1870. – С.26.27,36.
9.Topildiyev, N.Qo‘qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari tarixidan (XIX asr-1876-yilgacha)/N.Topildiyev. – Toshkent: .Fan, 2007. – B. 38-39

[14] Jumayev.A.M, Xalilova.S.O. XIX- asrda Rossiya va Qo‘qon xonligi o‘rtasida savdo aloqalarining tarixiy ahamiyati/A.M.Jumayev, S.O.Xoliqova//. O‘zbekiston Finlandiya universiteti axborotnomasi. – URL:{https.//refocus-conferences.uz} . (29.04.2026/)xix – asrda rossiya va qo'qon xonligi o'rtasida savdo.

FOYDALANILGAN INTERNET SAYTLARI

1.Jumayev.A.M, Xalilova.S.O. XIX- asrda Rossiya va Qo‘qon xonligi o‘rtasida savdo aloqalarining tarixiy ahamiyati/A.M.Jumayev, S.O.Xoliqova//. O‘zbekiston Finlandiya universiteti axborotnomasi. – URL:{https.//refocus-conferences.uz} . (29.04.2026/)xix – asrda rossiya va qo'qon xonligi o'rtasida savdo.